Аннотация. В данной научной статье анализируются современные нормативно-правовые основы развития креативной индустрии и сферы event-менеджмента в Республике Узбекистан. Основное внимание исследования сосредоточено на Законе No ЗРУ-970 "О креативной экономике", принятом 3 октября 2024 года, а также его исследовании в таких областях, как концертно-зрелищная деятельность и организация массовых культурных мероприятий. В статье анализируется определение видов креативной индустрии в законодательстве Республики Узбекистан, направления государственной политики, механизмы поддержки (налоговые льготы, гранты, инфраструктура) и аспекты защиты интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: Креативная индустрия, event-менеджмент, правовые основы, креативная экономика, интеллектуальная собственность, культурные мероприятия, экономическое развитие, лицензирование, государственная политика.

KIRISH

Kreativ industriya va event menejmenti zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi va intellektual mulk, ijodkorlik va madaniy qadriyatlarga asoslangan. Global miqyosda so'nggi o'ttiz yillikda "Kreativ iqtisodiyot" (KI) atamasi butun dunyoda tobora ko'proq qiziqish uyg'otayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz, chunki bu iqtisodiyot va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashish usuli hisoblanadi [1:1]. U idoralar iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarning yangi paradigmasi bo'lib, sanoatda muhim rol o'ynaydi; mahsulot yoki xizmatlarga aylantirilgan ijodiy g'oyalarda qiymat yaratishdan iborat [1:2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) kreativ iqtisodiyotga keng ta'rif beradi: bu iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlovchi ijodiy aktivlarga asoslangan rivojlanayotgan kontsepsiya hisoblanadi [2:1]. Ushbu tushuncha faqat iqtisodiy jihatlarni emas, balki madaniy xilma-xillik



va inson taraqqiyotini ham o'z ichiga qamrab olishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Kreativ industriyalar faoliyati insonning ilmi va bilimi, ijodkorligi va zamonaviy fikrlashi natijasida yuzaga keladigan, yuqori iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan intellektual mahsulotlar va xizmatlar bilan tavsiflanadi. Kreativ sanoat (kreativ industriya) va event-menejment tushunchalari zamonaviy iqtisodiyotning rivojida muhim rol o'ynaydi. Global miqyosda ijodiy yondoshuvga asoslangan iqtisodiyot sektorlarining o'sishi tez sur'atda amalga oshib, butun dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 3% ini tashkil etmoqda [3:2]. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, madaniyat va ijodkorlikka asoslangan sanoatlar (Cultural and Creative Industries, CCI) global daromadlarda yiliga \$2250 milliardga yaqin daromad keltirib, 30 milliondan ziyod kadrlar bandligini ta'minlaydi [3:2]. Shuniham aytib o'rishimiz kerakki, kreativ iqtisodiyotning global ish o'rinlari ulushida yoshlarning o'rnini ancha yuqori bo'lib, yaqin kelajakda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni shakllantirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Kreativ sanoat kontseptsiyasi ilk bora Buyuk Britaniyaning Madaniyat, Ommaviy axborot vositalari va Sport Vazirligi (DCMS) tomonidan taqdim etilgan va unda "Individual ijodkorlik, mahorat va iste'doddan kelib chiqqan holda intellektual mulk yaratish va uni ekspluatatsiya qilish orqali daromad ko'rish va ish o'rinlari yaratish salohiyatiga ega soha – Kreativ soha" deb ta'kidlangan [4:8]. Keyinchalik esa 2008–2010-yillarda UNESCO va UNCTAD (BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi) ham kreativ iqtisodiyot haqida keng tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ijodiy mahsulot va xizmatlar eksporti hamda iqtisodiy o'sishdagi ulushini o'rganib chiqqan. Masalan, UNESCO tahlillariga ko'ra, ushbu yo'nalish jahon YAIMning 3,1 foizi va barcha ish o'rinlarining 6,2 foizini tashkil etib, o'sishni rag'batlantiradi [5:1]. Shunday qilib, ijodkorlikka asoslangan iqtisodiyot dunyoda barqaror rivojlanish uchun muhim omil ekani e'tirof etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar global va mahalliy manbalarni qamrab olgan bo'lib, kreativ iqtisodiyotning ta'riflari, jahon tajribasi, statistikasi va O'zbekistonning huquqiy asoslarini tahlil qilishga asoslangan. UNCTAD va UNESCO hisobotlari Homero Rodriguez-Insuasti, Nestor Montalvan-Burbano, Otto Suarez-Rodriguez, Marcela Yonfa-Medrande and Katherine Parrales-Guerrero, bibliometrik tahlil orqali kreativ iqtisodiyotni biznes va innovatsiyalar bilan bog'lab, rivojlangan mamlakatlarda va rivojlanayotganlardagi o'sishini ko'rsatadi. Oybek Dusmuxamedov jahon tajribasini O'zbekiston bilan solishtirib, DCMS ta'rifini asos qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlili, rasmiy statistika ma'lumotlari va xalqaro hamkorlik hisobotlari o'rganilgan. Uzoq muddatli ma'lumotlar bazasi sifatida UNCTAD va UNESCO tadqiqotlari, shuningdek O'zbekiston bo'yicha rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi. Huquqiy modul sifatida 2024-yil oktabrda qabul qilingan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonuni va unga muvofiq qabul qilingan nizomlar, hukumat qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari asosiy manba bo'ldi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar qo'llanilib, kreativ sohalar bo'yicha mavjud huquqiy normalar, davlat siyosati yo'nalishlari, rag'batlantirish choralari hamda intellektual mulk himoyasi baholandi.

TAHLIL VA NATIJLAR

Kreativ iqtisodiyot atamasi inglizcha creative economy so'zidan tarjima qilinib, kreativ industriyalarga ulangan yirik iqtisodiy tizim sifatida tushuniladi. U ijod va intellektual salohiyat asosida yaratilgan tovar va xizmatlar aylanmasidan iborat bo'lib, texnologiyalar va innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda yaqinda qabul qilingan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunning asosiy tushunchalar bo'limida kreativ iqtisodiyot - "ijodiyot, intellektual qobiliyat hamda innovatsiya va texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qiymatga ega tovarlar (ishlar, xizmatlar) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'i" deb belgilangani e'tiborga molik [6:1].

Kreativ sanoat (kreativ industriya) – kreativ iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, intellektual mulkka asoslangan tovarlar (ijodiy mahsulotlar) va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish, tarqatish va ilgari surish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatlar majmuasini anglatadi. O'zbekiston qonunchiligida ham kreativ industriya shunday ta'riflangan: "ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek intellektual mulk ustuvorligiga asoslangan, iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turlari majmui" [6:1]. Shuningdek, qonunda kreativ mahsulot – kreativ iqtisodiyot sohasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek boshqa fuqaroviy-huquqiy bitimlar obyektlari – deb belgilangan, uni himoya qilish uchun intellektual mulk huquqlari normalari tatbiq etilishi ta'kidlangan [6:1].

Jahon tajribasiga ko'ra, kreativ iqtisodiyot eng tez sur'atda o'sayotgan sohalardan biri hisoblanadi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, global iqtisodiyotda kreativ sektor 3% atrofida hissaga ega va 2021-yil BMT tomonidan ijodiy iqtisodiyot xalqaro yili deb e'lon qilingan [3:2]. Creative Economy Outlook (UNCTAD, 2019) ma'lumotlariga ko'ra, madaniyat va ijodiyatga asoslangan sanoatlar yiliga 2,3 trillion dollarga yaqin daromad keltiradi va global yalpi ichki mahsulotining 3,1% ini tashkil qiladi. Bu sektorda ishlovchilar soni ham jadal o'sadi: masalan, UNESCO ma'lumotlarida madaniy va ijodiy sohalarda atigi 18–25 yoshdagi mehnatkashlar soni ko'proq bo'lishi qayd etilgan, ya'ni kreativ industriya global mehnat bozorining yosh qatlamlari uchun asosiy bandlik manbai hisoblanadi [3:2]. Shuning uchun ham global tajribaning o'rganishida kreativ sohalarning rivojlanishi, ularni rag'batlantirish mexanizmlari va intellektual mulkni himoya qilish muhim omil sifatida ko'rilmogda. O'zbekistonda kreativ iqtisodiyot g'oyasi so'nggi yillarda e'tibor markaziga bo'lmoqda. 2024-yil 3-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-970-son) imzolandi. Ushbu qonunning maqsadi – ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kreativ industriyani rivojlantirish va bu sohadagi munosabatlarni tartibga solishdir [6:1]. Qonunda kreativ industriya sohalari to'liq sanab o'tilgan:

- adabiy ijodni;
- amaliy san'at va hunarmandchilikni;
- arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani;
- audiovizual san'atni;
- ijrochilik san'atini;
- konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni;
- moda va dizayn san'atini;
- muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini;
- nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni;
- prodyuserlik faoliyatini;
- raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- reklama sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- san'at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatni;
- tasviriy san'atni. [6:1]

Shu jumladan, qonunda konsert-tomosha faoliyatining va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish faoliyatining ham kreativ industriya turkumiga kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Event sohasi "konsert-tomosha faoliyati va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish faoliyati" sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati kreativ iqtisodiyotga alohida e'tibor qaratmoqda. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida iqtisodiyotimiz barqarorligi, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir yangi yo'nalish – kreativ iqtisodiyotga to'xtalib, "Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani, Nukusda esa "Orol madaniyati" xalqaro ilmiy anjumanini o'tkazamiz. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha alohida qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir", deb aytib o'tgan edilar [5:1].


2018–2020-yillarda madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga doir Prezident farmon va qarorlari (PQ-3920 va PF-6000) qabul qilinganligi, kreativ iqtisodiyot masalalari alohida muhokama qilinganligi ham e'tiborga molik. Ushbu hujjatlarda ijodiy va madaniy sohalarga qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, infratuzilma yaratish va fan-texnika yutuqlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

1-jadval: Kreativ industriya subyektlariga davlat qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari (O'RQ-970-son Qonun asosida) [6:1]

Qo'llab-quvvatlash turi	Mazmuni	Event menejmentga ta'siri
Soliq va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar	Qonunchilikda belgilangan tartibda soliq yukini kamaytirish	Agentlik xarajatlarini optimallashtirish, xizmat narxini raqobatbardosh saqlash
Moliya yordami (subsidiyalar, grantlar)	Davlat byudjeti hisobidan loyihalarni moliyalashtirish	Yangi, o'ziga xos madaniy tadbirlar va festivallarni ishlab chiqish imkoniyati
Infratuzilma bilan ta'minlash	Kreativ parklar, klasterlar, ijod markazlarida joy ajratish	Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ish maydonchasi, mijozlar bilan uchrashuvlar o'tkazish imkoniyati
Intellektual mulkni himoya qilish	Mualliflik huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish protsedurasini soddalashtirish	Tadbir konsepsiyasi, brendi, dizayn yechimlarini huquqiy himoya qilish
Ta'lim va malaka oshirish	Zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy qilish, dual ta'limni qo'llab-quvvatlash	Mutaxassislar tayyorlash, xalqaro standartlarni o'rganish




2024-yildagi rasmiy statistik ma'lumotlar ham kreativ industriyaning o'sishini ko'rsatadi. Masalan, 4-Bosqich Kreativ Iqtisodiyot bo'yicha jahon konferensiyasida taqdim etilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda 50 860 ta kompaniya kreativ sohalarida ro'yxatdan o'tgan. Ulardan 38% media va kommunikatsiya, 36% esa arxitektura, reklama va foto yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Boshqa sohalar orasida ta'kidlanishicha, kreativ industriyalar eksporti 936 mln USD, ichki bozor hajmi esa 3026 mln USD ni tashkil etgan [7:3]. 2022-yil uchun kreativ industriyalarning YAIMdagi umumiy ulushi 1.46% bo'lib, eng yirik hissalar arxitektura (0.42%), IT (0.28%), mediya (0.17%) kabi sohalarga to'g'ri kelgan. Ommaviy madaniy tadbirlar va turizm (event & turizm) sektori esa YAIMning atigi 0.04 foizini tashkil etgan [7:3].



Quyida O'zbekistondagi turli kreativ industriya tarmoqlari bo'yicha 2022-yildagi YAIMga qo'shgan hisssasi va xodimlar soni keltirilgan:

- Vizual san'at: \$13.4\$ mln (0.02%), 3 695 kishi,
- Ijrochilik san'ati: \$31.83\$ mln (0.04%), 7 168 kishi,
- Hunarmandchilik: \$61.45\$ mln (0.07%), 20 493 kishi,
- Moda va dizayn: \$109.14\$ mln (0.13%), 39 870 kishi,
- IT va dasturiy ta'minot: \$227.82\$ mln (0.28%), 16 699 kishi,
- Media: \$140.43\$ mln (0.17%), 12 511 kishi,
- Reklama va marketing: \$49.89\$ mln (0.06%), 7 977 kishi,
- Oziq-ovqat sanoati: \$89.84\$ mln (0.11%), 38 097 kishi,
- Nashriyot va bosma: \$20.58\$ mln (0.03%), 3 785 kishi,
- Madaniy meros: \$32.84\$ mln (0.04%), 9 250 kishi,
- Konsert va ommaviy madaniy tadbirlar: \$32.72\$ mln (0.04%), 7 223 kishi [7:3].



Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotning hozirgi bosqichida YAIMdagi eng ko'p foizlardagi ulushlarni IT va dasturiy ta'minot, Moda va dizayn sohalarida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, kreativ sektorlarga doir yirik loyihalar va qo'llab-quvvatlash choralari orqali bu ulushlar orttirilishi rejalashtirilmoqda. O'zbekiston hukumati kreativ industriya infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor bermoqda. "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunda "kreativ industriya parki" tushunchasi joriy etilgan: bu – O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida eksteritoriallik prinsiplari asosida kreativ industriya sohalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faoliyat olib boradigan tashkiliy-huquqiy tuzilma hisoblanadi [6:1]. Bunday parklar orqali tadbirkorlar uchun soliq va boj imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar singari preferensiyalar yaratilishi, zamonaviy ixtiro va innovatsiyalarni joriy etish uchun laboratoriya va ishchi maydonlar tashkil etilishi nazarda tutilgan.

2018–2024-yillarda O'zbekistonda Ijodkorlik va Innovatsiya sohalarida Festivallar, "Hunarmandlar festivali", shuningdek "Kreativ Toshkent", "Kreativ Farg'ona vodiysi" singari loyiha va tanlovlar o'tkazilishi rejalashtirilgan va amalga oshirilgan. Bunday tadbirlar ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, yangi brendlarni ilgari surish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Hukumat tomonidan kreativ loyihalar uchun maxsus grantlar taqdim etish, biznes inkubatorlar tashkil etish va oliy ta'lim muassasalarida ijodiy mutaxassisliklarni kengaytirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, Kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun jamg'armalar tashkil etilib, innovatsion g'oya va startaplarni moliyalashtirish nazarda tutiladi.

Kreativ sanoatda inson kapitalini rivojlantirish ham muhim: qonunda kreativ sohalarida kadrlar tayyorlash va o'quv dasturlarini joriy etish, zamonaviy ta'limga investitsiya qilish ko'zda tutilgan. Davlat va xususiy sektor birgalikda kreatorlar malakasini oshirish uchun master-klasslar, trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil etmoqda. Shu bilan, O'zbekiston hukumati "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiy o'sishni yangi jihatlar bilan boyitish sifatida kreativ industriyani rivojlantirishni belgilagan (masalan, strategiya yutuqlari orasida madaniyat va ijod sektori uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish nazarda tutilgan) [8:1].

Kreativ sanoat doirasida event-menejment (ommaviy tadbirlar, konsertlar va boshqa madaniy marosimlar tashkillashtirish)ga ham katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, konsert-tomosha, festivallar va boshqa ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etishda litsenziya olish talab etiladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-dekabrda 354-sonli "Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash tartibi" to'g'risidagi nizomga muvofiq ijrochilar (jismoniy va yuridik shaxslar) konsert va ko'ngilochar xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun 5 yil muddatga litsenziya olishlari kerak [9:1]. Mazkur litsenziya ijrochilarning ijodiy reyting guruhlariga ko'ra I dan VI gacha guruhlariga bo'linadi; birinchi-to'rtinchi guruhlar yirik konsert dasturlarini, beshinchi-oltinchi guruhlar esa asosan to'y va kichik tadbirlarni o'tkazish huquqini beradi [9:1]. Bu tartibot ijrochilarga milliy qadriyatlar va axloq qoidalariga mos bo'lgan kontsert-dasturlarini tayyorlashini va ularni rasmiy organlar nazorati ostida amalga oshirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi huzurida jamoat xavfsizligini ta'minlash qoidalarini belgilanadi. Masalan, "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2014-yil VM qarori №205) muvofiqashtirilgan holda qabul qilingan: unda ommaviy tadbirlarda xavfsizlik choralari, ichki ishlar organlari bilan xavfsizlik bo'yicha shartnomalar, politsiya razryadlari qatnashishi kabi talablar o'rnatilgan [10:1]. Shu bilan birga, davlat tomonidan maxsus tartib-qoidalar orqali konsertlar va festival kabi madaniy tadbirlarni tartibga solish mexanizmlari yaratilgan bo'lib, litsenziya va ruxsatnomalar tizimi joriy etilgan. Ommaviy tadbirlarning toifalari va Ruxsatnoma mexanizmlari quyidagi jadvalda umumlashtirib keltirildi.

2-jadval: O'zbekistonda Ommaviy tadbirlar toifalari va Ruxsatnoma mexanizmlari [10:1]

Toifa	Tavsif (Miqdoriy cheklov/Joy)	Ruxsatnoma Beruvchi Vakolatli Organ	Huquqiy Asos
Alohida	Milliy bayramlar, xalqaro sammitlar, test sinovlari.	Vazirlar Mahkamasi (bilvosita nazoratda)	3-band
Birinchi	Toshkent/Nukus/Viloyat markazlarida 100+ kishilik madaniy/ko'ngilochar tadbir.	Qoraqalpog'iston IIV, Toshkent shahar IIBB, Viloyatlar IIB.	3, 4-bandlar
Ikkinchi	Tuman (shahar) hududlarida o'tkaziladigan boshqa tadbirlar.	Tumanlar (shaharlar) IIB.	3, 4-bandlar

Kreativ mahsulot va xizmatlarning intellektual mulki himoyasi ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston qonunlariga ko'ra, Kreativ mahsulotlar (musiqasi asarlari, dizayn, skript va badiiy asarlar) intellektual va ijodiy faoliyat natijasidir hamda u qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadi [6:1]. Bu – kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi, chunki intellektual mulkni himoya qiluvchi muhit ravnaq topmasa,



kreitorlar investitsiya va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga intilishmaydi. O'zbekistonning Birja, arxitektura, kinoteatr, madaniy meros va boshqa sohaga oid qonunlarida ham ijodkorlarning huquqlari kafolatlangan, kreativ industriya subyektlariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos mahsulot yaratuvchilariga imtiyozlar berilgan.

O'zbekiston kreativ industriyasi kesimida mavjud statistik ma'lumotlar tahlili istiqboldagi yechimlarni aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, WCCE va Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston kreativ industriyasining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi 1,46% bo'lgan (1415,86 mln USD) [7:3]. Eng yirik ulush arxitektura (0,42%), axborot texnologiyalari (0,28%), media (0,17%) kabi sohalarga to'g'ri kelsa, event va turizm bo'limi atigi 0,04%ga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, arxitektura va media sohalari kreativ iqtisodiyotda etakchilik qiladi, holbuki eventlar – madaniy tadbirlar sektori hozircha kichik bozor ulushiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda kreativ industriya va event-menejment sohalari huquqiy-me'yoriy jihatdan mustahkamlanib bormoqda. Yaqinda qabul qilingan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonuni ijodiy tarmoqlarni qonunchilik asosida tartibga solish va rag'batlantirishga katta imkoniyat yaratdi. O'zbekistonda kreativ industriya 15 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan, jumladan, konsert-tomosha va ommaviy madaniy tadbirlar ya'niy Eventlar sohasi ham kiritilgan. Mazkur yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi subyektlarga imtiyozlar, kreativ parklari va infratuzilma yaratilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, konsert va festivallarni litsenziyalash orqali sifatli xizmat ko'rsatish hamda jamoat tartibini saqlash ta'minlanmoqda. O'zbekiston hukumati kreativ industriyani 2030 yilgacha mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirishni rejalashtirmoqda. Bu boradagi dastlabki raqamlar ham buni tasdiqlamoqda: hozirgi vaqtda kreativ sektorlarning YAIMdagi ulushi taxminan 1,5% ga yaqin (2022) bo'lsa, 2030 yilga borib ushbu ko'rsatkichni 5% gacha yetkazish belgilangan maqsadlar sirasiga kiradi. Buning uchun intellektual mulk himoyasi kuchaytirilishi, ta'lim va ilmiy izlanishlar rivojlantirilishi, investitsiya va xalqaro hamkorlik kengaytirilishi eng ahamiyatli jihatlaridan hisoblanadi. Yuqoridagi holatlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda kreativ industriya va event-menejment sohasini rivojlantirish uchun asosiy huquqiy tamoyillar puxta belgilangan. Ayni paytda qonunchilikni amaliyotga muvofiq bajarish, yangi xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hamda ijodiy subyektlar uchun qulay muhit yaratish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur istiqbol orqali mamlakat iqtisodiyotiga raqobatbardosh va innovatsion yondashuvlar olib kelinishi, madaniy va iqtisodiy maqsadlar uyg'unlashishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Homero Rodriguez-Insuasti, Nestor Montalvan-Burbano, Otto Suarez-Rodriguez, Marcela Yonfa-Medrande and Katherine Parrales-Guerrero, „Creative Economy: A Worldwide Research in Business, Management and Accounting“ 1-bet <https://www.mdpi.com/2071-1050/14/23/16010>
2. UNCTAD. "Savdo va ijodiy iqtisodiyot dasturi" .1-bet <https://unctad.org/topic/trade-analysis/creative-economy-programme>
3. UNESCO Roadmap "International Year of Creative Economy for Sustainable Development 2021" 2-bet https://creativeoh.org/wp-content/uploads/2023/02/creative_economy2021-unesco-roadmapen-ok2.pdf
4. "O'zbekistonda kreativ industriya birlashmalarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar", "Madaniyatlararo hamkorlik" MCHJ 2022 8-bet <https://www.britishcouncil.uz/sites/default/files/mapping-uzbekistan-creative-industries-uzbek.pdf>
5. Oybek Dusmuxamedov, "Kreativ iqtisodiyot mohiyati va uni rivojlantirishning jahon tajribasi" 19 Yanvar 2024 1-bet <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>
6. O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonuni 03.10.2024, O'RQ-970 1-bet <https://lex.uz/docs/-7129258>
7. Akhtem Useinov, Komiljon Karimov, Bekzod Zakirov "Realizing the full potential of the creative economy in Uzbekistan" CPRO Policy Brief 2024-10 3-bet <https://cpro.wiut.uz/images/documents/0.%20Creative%20Economy%20Uzbekistan%20CPRO%20template.edited.pdf>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 11.09.2023 PF-158-son 1-bet <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 09.12.2015 354-son 1-bet <https://lex.uz/docs/-2831618>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 29.07.2014 205-son 1-bet <https://lex.uz/uz/docs/-2438871>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100